# DINSHUNOSLIK FANIDAN

# MUSTAQIL TA'LIM

## Mustakil ishlarni tashkil etish shakli va mazmuni

Mustakil ta'limning turli xil shakllari mavjud bulib, bunda asosiy e'tibor talabaning berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriklar va keys-stadilar)ni mustakil ravishda, ya'ni auditoriyadan tashkarida bajarishi, o’kib o’rganishi va shu yo’nalish bo’yicha bilim va ko’nikmalarini chukurlashtirishiga qaratiladi. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini xisobga olgan xolda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

darslik yoki o’quv qo’llanmalar bo’yicha fanlar boblari va mavzularini o’rganish;

tarqatma materiallar bo’yicha ma'ruzalar qismini o’zlashtirish;

mustaqil ishlar, keys-stadilar bilan ishlash;

maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo’yicha fanlar bo’limlari yoki mavzulari ustida ishlash;

fanga oid ma'lumotlarni o’rganish, ularni tahlil qilish;

talabaning o’quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog’lik bo’lgan fanlar bo’limlari yoki mavzularni chuqur o’rganish;

faol va muammoli o’qitish uslubidan foydalaniladigan o’quv mashg’ulotlari;

masofaviy (distantsion) ta'lim.

Dinshunoslik fanidan talabalarning mustaqil ishlarini referat, seminar, doklad tayyorlash, Prezident asarlarini konspektlashtirish va boshqa shakllarda tashkil etilishi tavsiya etiladi. Mustaqil ish mavzularini belgilashda ma'ruza va seminar mashg’ulotlari mavzularini to’ldirishga xarakat qilinishi lozim.

## Tavsiya etilayotgan mustakil ta'lim mavzulari:

1. Madaniyat va din.
2. Dinning jamiyatda va inson xayotida tutgan urni.
3. Shark uyg’onish davrida dinning o’ziga xos xususiyatlari.
4. Islomiy kadriyatlar va xozirgi zamon.
5. Uzbekistonda jamiyatning ma'naviy yangilanishi jarayonida diniy- ma'naviy merosga munosabat.
6. An'anaviy dinlarning dunyo madaniyatida tutgan urni.
7. Din va ma'naviy meros.
8. Diniy bag’rikenglik madaniyati.
9. Istiklol - milliy-madaniy taraqqiyotning omili.
10. Din va axlok.
11. Mustabid sho’ro xukmronligi davrida O’zbekistonda din.
12. Mustakillik davrida milliy-ma'naviy merosning tiklanishi.
13. Dinda milliylik va umuminsoniylik.
14. Din va demokratiya.
15. Din va siyosat.
16. Din va xurfikrlilik.
17. Qadimgi Misr dinlari.
18. Qadimgi Yunon dinlari.
19. Qadimgi Xitoy dinlari.
20. Qadimgi Xindiston dinlari.
21. Qadimgi Mesopotamiya xalklar dinlari
22. Shaxs komolotida dinning tutgan urni.
23. Markaziy Osiyo xalklarining qadimgi dinlari
24. Dindagi umuminsoniy qadriyatlar.
25. Sharq va G’arb mutafakkirlarining dinga nisbatan qarashlari.
26. Musulmon olimlarining din haqidagi fikrlari.
27. O’z.R. Prezidenti I.A.Karimov asarlarida din haqidagi qarashlar.

28. Dinning paydo bo’lishi haqidagi masala.
29. Din va dunyoviy taraqqiyot.
30. Dinning san'at rivojida roli.
31. Diniy va dunyoviy estetik kontseptsiyalar.
32. Diniy tashkilotlarning jamoat tashkilotlari bilan hamkorligi.
33. Dinning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati.
34. Dinning integratorlik va regulyatorlik vazifasi.
35. Dinda shaxs va jamiyat masalalari.
36. Islomda zakot, sadaqa, qo’shnilik va yo’lovchi haqi.
37. Xorijiylar yo’nalishining kelib chiqish sabablari.
38. Shi'ia firqalarining paydo bo’lishi.
39. Mu'taziliylar haqida tushuncha bering.
40. Sharq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida islom.
41. Hadislar va payg’ambar sunnasi.
42. To’rt buyuk imom-sunniy mazhab asoschilari
43. Islomdagi g’oyaviy ixtiloflar
44. Islom dinining O’rta Osiyoga kirib kelishi
45. Islom dini ta'limoti
46. Markaziy Osiyo sufizmi
47. Markaziy Osiyoda tasavvufshunoslarning diniy falsafiy qarashlari
48. Jaloliddin Rumiyning diniy axloqiy qarashlari
49. Alisher Navoiyning diniy ma'naviy qarashlari
50. XIX asr islom modernizmi.
51. Diniy ekstremizm va fundamentalizm oqibatlari
52. Diniy ekstremizm va terrorizmning mazmun mohiyati
53. Musulmon dinining dniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashi
54. «Islom olami» tushunchasi.
55. Islom madaniyati va jahon sivilizatsiyasi.
56. Dunyo siyosatida «islom omili».
57. Xalqaro islom tashkilotlari.
58. Islomshunoslik fanining ilmiy va amaliy ahamiyati.
59. O’zbekistonda islom.
60. O’zbekistonda diniy bag’rikenglik masalalari

**Mustaqil ishlar mavzulari mazmuni va ularga ajratilgan soatlar**

| №№ | Mustaqil ishlar mavzulari | Ajratilgan soatlar |
|---|---|---|
| **1-Mavzu** | Cobiq Ittifoq davrida dinga munosabat. Mustaqillik va din. Dinga berilgan ta'riflar turfaxilligi sabablari. Din va jamiyat.<br>Dinlarning kelib chiqishi haqidagi yondashuvlar. Animizmning turli mintaqalardagi shakllari. Totemizmning turli mintaqalardagi shakllari. Fetishizmning turli mintaqalardagi shakllari. Magiyaning turli mintaqalardagi shakllari. Ilk diniy tasavvurlarning bugungi kundagi ko’rinishlari. | 2 |
| **2-Mavzu** | Xitoy dinlarining o’ziga xos xususiyatlari. Konfutsiylik va xitoy xalqi an'analari. Daolik va sehr. Yaponiya tarixi va sintoiylik. Sintoiylikdagi sinkretizm.<br>Yahudiylik manbalari. Yahudiylikning ilk tarixi haqidagi muqaddas manbalarda kelgan xabarlar. Qadimiy yahudiy oqimlari. Markaziy Osiyoda yahudiylik. | 2 |
| **3-Mavzu** | Oriy qabilalarining Hindiston ijtimoiy hayotiga ta'siri. Veda Xudolari tasnifi. Vedizmdan Braxmanlikning kelib chiqishi sabablari. Braxmanlikning Hinduiylikka aylanishi omillari. Jaynizm tirtxakarlari. Sikxiylik ta'limotidagi sinkretizm. | 2 |
| **4-Mavzu** | Avestodagi ezgulikka chaqiruvchi matnlar. Zardushtiylikda muqaddas sanalgan unsurlar va ularni e'zozlash amallari. Zardushtning kelib chiqishi. Zardusht ko’rsatgan «mo’'jizalar».<br>Moniy haqidagi fikrlar. Moniylikdagi sinkretik unsurlar. Moniylikning O’rta Osiyodagi xolati. Mazdakiylik ta'limoti. Mazdakiylik harakatining tarixiy ahamiyati. | 2 |
| **5-Mavzu** | Budda haqidagi afsona. Buddaviylikka Hindiston dinlarining ta'siri. Buddaviylikning Markaziy Osiyoda egallagan mavqei. Xitoyda buddaviylik. | 2 |
| **6-Mavzu** | Iso Masih hayoti va faoliyati. Bibliyadagi insonparvarlik g’oyalari. Pasxa bayramining mohiyati. Xristianlikda sirli marosimlar. | 2 |
| **7-Mavzu** | Xristianlikdagi bo’linish sabalari. Pravoslavlik tarixi va ta'limoti. Katolitsizm bilan pravoslavlik ta'limotlaridagi umumiy va farqli tomonlar. Protestantlikning katolitsizmdan ajralib chiqish sabalari. O’zbekistondagi xristian yo’nalishidagi diniy tashkilotlarning jamiyat hayotidagi o’rni. | 2 |
| **8-Mavzu** | Islomning asl mohiyati. Islomiy marosim va bayramlarning jamiyat hayotidagi o’rni. Islom dinining muqaddas manbalari. Yurtimiz alomalarining Islom dini rivojiga qo’shgan hissalari. Islom va hozirgi zamon.<br>An'ana, marosim, urf-odat va bayram tushunchalarining ta'rifi. Musulmon xalqlari diniy marosimlari. . | 2 |
| **9-Mavzu** | Xorijiylarning siyosiy va aqidaviy qarashlari. Shialikning Eronda keng tarqalishi. Sunniylik yo’nalishi va mazhablari . | 2 |
| **10-Mavzu** | Diniy ekstremizm va terrorizmning mohiyati va maqsadlari. Islom dini va xristian dini doirasida yuzaga kelgan norasmiy diniy ekstremistik tashkilotlar faoliyati. O’zbekistondagi diniy konfessiyalar faoliyati. Missionerlik va prozelitizm. Vijdon erkinligining xalqaro hujjatlarda aks etishi. Bag’rikenglik tushunchasi. Diniy jamoa va diniy tashkilot. Konfessiyalararo hamjihatlik. | 2 |
| JAMI | | **20** |

**«DINSHUNOSLIK» fanidan MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARI**

1. Dunyo dinlarining farqli va o'xshash jihatlari haqida sxematik jadvallar tuzish .
2. Turli olimlar tomonidan dinga berilgan ta'riflar haqida ko'rgazmali slaydlar tayyorlash (MS Power Point).
3. Dinlarning kelib chiqishi haqidagi yondashuvlar haqida ma'lumotnoma tayyorlash.
4. Ilk diniy tasavvurlarning bugungi kundagi ko'rinishlari haqida ko'rgazmali slaydlar tayyorlash (MS Power Point).
5. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari hayotida animistik, totemistik, fetishistik va shamanistik tasavvurlarning o'rni haqida ma'lumot to'plash.
6. Qadimgi Misr, Yunoniston, Mesopotamiya va Rim xudolari panteoni haqida ma'lumot beruvchi ko'rgazmali slaydlar tayyorlash (MS Power Point).
7. Xitoy dinlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida sxematik jadvallar tuzish .
8. Konfutsiylik va xitoy xalqi an'analari uyg'unligi to'g'risida ma'lumotnoma tayyorlash.
9. Daochilikning bugungi kundagi taqdiri haqida ma'lumot to'plash .
10. Sintoiylik haqida ko'rgazmali slayd tayyorlash (MS Power Point).
11. Veda Xudolari tasnifi haqida so'zlab berish.
12. Vedizmdan Braxmanizmning kelib chiqishi sabablarini ochib berish.
13. Jaynizm tirtxakarlari haqida to'liq ma'lumot to'plash.
14. Zardushtiylikning kelib chiqishi haqidagi nazariyalarni atroflicha o'rganib, shu haqda kursdoshlarga ma'lumot berish.
15. Zardushtiylikda muqaddas sanalgan unsurlar va ularni e'zozlash amallari haqida ilmiy ish tayyorlash.
16. Zardushtiylik dinining bugungi kundagi qoldiqlari haqida sxematik jadvallar tuzish .
17. Yahudiylik manbalari haqida gapirib berish.
18. Mazkur dinning kelib chiqishi haqidagi yahudiy, xristian va islom dinlaridagi rivoyatlarni tahlil qilish.
19. Markaziy Osiyoda yahudiylik va Buxoro yahudiylari mavzusida ko'rgazmali slayd tayyorlash (MS Power Point).
20. Xristianlikdagi bo'linish sabablarini tarixiy tahlil qilish.
21. Pravoslavlik tarixi va ta'limotining o'ziga xos jihatlari haqida ilmiy ish tayyorlash.
22. Katoliklik va pravoslavlik ta'limotlaridagi mushtarak va farqli jihatlar haqida qiyosiy ko'rgazmali slaydlar tayyorlash.
23. O'zbekistondagi xristian diniy tashkilotlari va ularning jamiyat hayotidagi o'rnini o'rganish.
24. Islomiy marosim va bayramlarning jamiyat hayotidagi o'rni haqida referat tayyorlash.
25. Islom dinining muqaddas manbalari haqida gapirib berinsh.
26. Markaziy Osiyo allomalarining islom dini rivojiga qo'shgan hissalari haqida ilmiy ma'ruza tayyorlash.
27. Talaba tug'ilib-o'sgan joydagi diniy va milliy urf-odat, an'ana, marosim va bayramlarning mazmun-mohiyati haqida gapirib berish.
28. Turli marosimlar haqida fotoalbom, referat, Power Point dasturida slaydli taqdimot tayyorlang.
29. Milliy va diniy an'analar xaqida sxematik jadvallar tuzish.
30. "An'anaviy" va "noan'anaviy din" tushushnchalarini ochib berish.
31. Noan'anaviy dinlar yuzaga kelgan tarixiy va ijtimoiy-siyosiy omillarni atroflicha o'rganib va gapirib berish.
32. G'arbda yangi sektalarning paydo bo'lishi sabablarini tahlil qilish.
33. Islom dini doirasida yuzaga kelgan oqimlarga an'anaviy ulamolarning fikri haqida ilmiy ish tayyorlash.
34. O'zbekistondagi noan'anaviy diniy tashkilotlar haqida ko'rgazmali slayd tayyorlash

35. Vijdon erkinligining xalqaro hujjatlarda aks etishi haqida ma'lumot to’plash va kursdoshlariga aytib berish.